«TASDIQLAYMAN»
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
rektori G.I. Muxamedov
_______________
“___” ________ 2022 yil

**TOShKENT VILOYaTI ChIRChIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**
**TA’LIM SIFATINI NAZORAT QILISh BO‘LIMINING**
**2022-2023 O‘QUV YILI UChUN**

# ISh REJASI

| № | Amalga oshiriladigan ishlar mazmuni | Ijro mexanizmi | Bajarilish muddati | Ijrochi mas’ullar |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Ta’lim sifatini nazorat qilish” bo‘limining 2022-2023 o‘quv yili uchun ish rejasini ishlab chiqish, uni o‘rnatilgan tartibda tasdiqlash. Ish rejada belgilangan vazifalar ijrosi bo‘yicha ma’lumotlar va xisobotlar o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta’minlash | 1. TSNQB 2022-2023 o‘quv yili uchun ish rejasi ishlab chiqiladi va universitet rektori tomonidan tasdiqlanadi;<br>2. Universitet Kengashida TSNQB ish rejasi bilan universitet bo‘limlari, dekanat va kafedralari tanishtiriladi va ularning hamkorligi ta’minlanadi;<br>3. Ish rejada belgilangan vazifalarni ijrosini nazorati olib boriladi, o‘z vaqtida tegishli vazirlik va idoralarga xisobotlar va ma’lumotlar topshirilishi amalga oshiriladi;<br>4. Ish rejada belgilangan vazifalar amalga oshirilmagan xolatda, sababini aniqlash maqsadida tahlil olib boriladi, aniqlangan kamchilik va muammolarni bartaraf etish borasida universitet raxbariyatiga taklif va tavsiyalar ishlab chiqilib taqdim etiladi. | 2022 yil avgust<br>Yil davomida | Universitet rektori G.I.Muxamedov, TSNQB boshlig‘i B.X.Eshchanov |
| 2. | Universitetda o‘quv-uslubiy bo‘lim va kafedralarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan DTS, malaka talablari, o‘quv rejalari, fan dasturlarining ta’minoti, shu bilan | 1. Universitet o‘quv bo‘limida DTS, malaka talablari, o‘quv rejalari, fan dasturlari, ishchi o‘quv rejalari va ishchi fan dasturlari, o‘quv uslubiy majmualar mavjudligi, namunaviy va ishchi o‘quv rejalar mosligi, shu bilan birga dars taqvimi rejalar asosida tuzilganligi o‘rganiladi; | 2022 yil | TSNQB xodimlari, fakultet dekanlari, jamoatchi ekspertlar guruxi, o‘ - uslubiy bo‘lim, |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | birga o'quv jarayoni uchun tasdiqlangan me'yoriy xujjatlar asosida ishchi o'quv rejalari va ishchi fan dasturlari, O'quv-uslubiy majmualar asosida olib borilishini ta'minlash. | 2. Jamoatchi ekspertlarni jalb etgan xolda kafedralarda ta'lim jarayonini sifatli tashkil qilishda DTS, malaka talablari, o'quv rejalari, fan dasturlari, ishchi o'quv rejalari va ishchi fan dasturlari, o'quv uslubiy majmualarning mavjudligi va mantiqiy mosligi, belgilangan maqsad va vazifalardan kelib chiqib mavzular yoritilganligi, pedagogik texnologiyalar mantiqan mos ravishda tanlanganligi holati o'rganiladi;<br>3. Kafedralar kesimida o'tkazilgan o'rganish jarayonida kamchilik va muammolar aniklanadi.<br>4. Aniqlangan kamchilik va muammolarni bartaraf etish bo'yicha qadrlar iste'molchilari fikrlarini inobatga olgan xolda ishlab chiqarish bilan ta'lim integratsiyasi nuqtai nazardan yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va rektor hamda universitet Kengashiga muhokamaga olib chiqiladi;<br>5. Universitet Kengashi qaroriga asosan mazkur xujjatlarga o'zgartirish kiritish uchun, ta'lim jarayonida foydalaniladigan me'yoriy xujjatlarni takomillashtirish bo'yicha kafedra xodimlariga o'quv seminarlar tashkil qilib boriladi;<br>6. Ta'lim jarayonida me'yoriy xujjatlardan foydalanish hamda ularni tadbiq qilish darajasi, sifat va samaradorligi xolatining monitoringi olib boriladi. | avgust<br><br>Yil davomida | kafedralar mudirlari va o'quv uslubiy ishlari ma'sullari. |
| 3. | Chirchiq davlat pedagogika universteti rektorining 2022 yil 15 iyudagi 01-177-sonli "Universitet xalqaro reytingiga oid ma'lumotlarni tayyorlash va milliy reytingdagi o'rini yaxshilash to'g'risida"gi buyrug'iga muvofiq universitetni QS, THE xalqaro reyting agentliklarining nufuzli universitetlar ro'yxatiga kiritishga tayyorlash | 1. QS hamda THE xalkaro reyting agentligi talablari asosida veb-saytni takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan Ish rejani amlaga oshirilishini monitoring qilinadi.<br>2. QS hamda THE xalqaro reyting agentligi tomonidan davriy ravishda e'lon qilinadigan rasmiy reyting natijalarini tahlil qilinadi.<br>3. Eng yuqori ko'rsatkichga ega oliy ta'lim muassasalarining tajribasidan foydalanib universitetning reytingdagi o'rnini yanada ko'tarish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. | Xar chorakda | TSNQB xodimlari va jamoatchi ekspertlar guruxi |
| 4. | O'zbekiston Respublikasi Vazirlar | 1. 2022/2023 o'quv yilidan universitet reyting | 2023 yil fevral | TSNQB xodimlari va |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | Mahkamasining 2019 yil 7 iyuldagi 467-son qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalari reytingini aniqlash tartibi to‘g‘risida Nizom”ga (bo‘yicha) muvofiq universitet reytingini aniqlashga oid ma’lumotlar bazasini shakllantirish | ko‘rsatkichlarini yanada oshirishni ta’minlash bo‘yicha shtab tashkil etish;<br>2. Universitetning ilmiy-pedagogik faoliyati darajasi va sifatini oshirishga ko‘maklashish;<br>3. Professor-o‘qituvchilarning ilmiy salohiyatidan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish;<br>4. Universitetning reyting ko‘rsatkichlariga oid ma’lumotlarni puxta ro‘yxatlash va chuqur tahlil qilish. | | jamoatchi ekspertlar guruxi |
| 5. | Professor-o‘qituvchilarni 2022-2023 o‘quv yiliga o‘quv yuklamalarining “Vaqt me’yorlari” asosida to‘g‘ri taqsimlanishi bilan amalga oshirilishi belgilangan shaxsiy ish rejalarini o‘rganish va ijrosi nazoratini olib borish. | 1. Kafedralar kesimida professor-o‘qituvchilar shaxsiy ish rejalarining yillik va yarim o‘quv yiliga belgilangan vazifalarni shakllantirilgan jamoatchi ekspertlarni jalb etgan xolda o‘rganish;<br>2. Kafedralar tomonidan xodimlarga amaldagi “Vaqt me’yorlari” asosida yuklamalarni to‘g‘ri taqsimlanganligini o‘rganish, taxlil qilish va muammolarni aniklash;<br>3. O‘kituvchi mutaxassisligining o‘tayotgan faniga muvofikligini o‘rganish;<br>4. Kafedralar kesimida mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha ekspertlarni jalb etgan xolda seminarlar tashkil qilish va bajarilish xolatini doimiy ravishda monitoringini olib borish;<br>5. Tahlil natijalari bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflarni rektorga taqdim etiladi va muxokama qilinadi. | 2022-2023 yil sentyabr, mart, iyun | TSNQB xodimlari va jamoatchi ekspertlar guruxi, ichki nazorat va monitoring bo‘limi, kafedra mudirlari va o‘quv ishlari ma’sullari. |
| 6. | Universitetda 2023 yildagi attestatsiya va akkreditatsiya jarayoniga tayyorgarlik ko‘rish maqsadida ichki attestatsiya va akkreditatsiya mexanizmini ishlab chiqish, tegishli ma’lumotlarni tarkibiy bo‘linmalardan olish va jamlangan ma’lumotlar bazasini shakllantirish. | 1. Universitet raxbariyati, tarkibiy tuzilmalari va yetakchi professorlar jalb etilgan xolda, attestatsiya va akkreditatsiyadan o‘tkazishga oid me’yoriy-huquqiy xujjatlar o‘rganiladi va taxlil qilinadi;<br>2. Universitet attestatsiyasi va akkreditatsiyasi jarayoniga tayyorgarlik ko‘rish, hamda ichki attestatsiya va akkreditatsiyasi rejasini ishlab chiqish maqsadida universitetning tarkibiy bo‘linmalarida attestatsiya va akkreditatsiyadan me’yoriy huquqiy xujjatlari asosida ma’lumotlar bazasini shakllantirish ishlari olib boriladi;<br>3. Shakllantirilgan ma’lumotlar bazasi universitetning barcha tarkibiy tuzilmalari fakultet, kafedra, bo‘lim, | 2023 yil 1 – chorak | TSNQB xodimlari, universitet rektorati, dekanati va tarkibiy tuzilmalari, akademik litsey, universitet kafedralari. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | markaz, akademik litsey bo‘limlaridan umumiy baza sifatida muvofiklashtiriladi;<br>4. Ichki attestatsiya va akkreditatsiyasining o‘tkazish tartibi, mezonlari va komissiya tarkibi universitet rektori tomonidan tasdiqlangan kafedralar kesimida jadval ishlab chiqiladi;<br>5. Ishlab chiqilgan jadval asosida universitet ichki attestatsiya va akkreditatsiyasi o‘tkaziladi, natijalari rasmiylashtirilib boriladi;<br>6. Olingan natijalar asosida xulosalar chiqariladi, bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqariladi va universitet Kengashida tasdiqlanadi;<br>7. Universitet attestatsiya va akkreditatsiyasi o‘tkazilish muddatiga qadar aniqlangan kamchiliklar va xatoliklar bartaraf etish tadbirlari olib borilishi nazorat etiladi;<br>8. Ish rejasining bajarilishi yuzasidan aniqlangan kamchiliklar taxlil qilinadi, ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar beriladi. | | |
| 7. | Kafedralar tomonidan amalga oshirilayotgan grantlar, shartnomalar asosida moddiy-texnik bazani yaxshilashga qo‘shgan xissasi va ulushiga e’tibor bergan xolda, moddiy-texnik bazasi ta’minotini o‘rganish. | 1. Xo‘jalik va moliyaviy bo‘limi hamda kafedralardan moddiy texnik bazasini ta’minotini o‘rganish bo‘yicha ma’lumot olinadi;<br>2. Olingan ma’lumotlarni universitetda grant-loyixalar, xo‘jalik shartnomalar asosida moddiy-texnika bazani yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni inobatga olgan xolda taxlili o‘tkaziladi;<br>3. Davlat inspeksiyasi tomonidan taqdim etilgan jadvalga asosan, jamoatchi ekspertlarni jalb etgan xolda kafedralar kesimida moddiy-texnik ta’minoti xolati taxliliy o‘rganiladi;<br>4. O‘rganish jarayonida kafedralarning ma’ruza, amaliy va labaratoriya (seminar) mashg‘ulotlarni olib borish uchun hamda amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan maxsus o‘quv xonalari va ulardagi jixozlarning mavjudligi, zamonaviyligi, yaroqlilik muddati, zarur moddiy ashyolar bilan ta’minlanganligi va | Joriy o‘quv yili davomida | TSNQB xodimlari va jamoatchi ekspertlar guruxi, universitet xo‘jalik va moliya bo‘limlari, kafedra mudirlari va xo‘jalik ishlari bo‘yicha ma’sullar. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | x.k. inobatga olinadi;<br>5. Universitet va kafedralarda moddiy-texnika bazalarini yaxshilashda zamonaviy jixozlarga e'tibor berilgan xolda taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi hamda rektorga taqdim etiladi. | | |
| 8. | Universitetning ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining fanlar bo'yicha o'quv adabiyotlari bilan ta'minlanganlik darajasini ARM va kafedralar (fanlar) kesimida o'rganish | 1. Universitetda o'quv adabiyotlarning (kurslar va tillar kesimida) ta'minoti bo'yicha ARM va kafedralardan ma'lumotlar olinadi hamda taxlili o'tkaziladi;<br>2. Davlat inspeksiyasi tomonidan taqdim etilgan ilovaga asosan, ARMda o'quv adabiyotlar ta'minoti xolatini o'rganish uchun shakllantirilgan jamoatchi ekspertlarni jalb etgan xolda, har bir fan kesimida o'quv adabiyotlarni talabalar soniga mos ravishda ta'minlanganligi, namunaviy va ishchi fan dasturlarida adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan asosiy adabiyotlar, elektron o'quv adabiyotlarning mavjudlik holati baholanadi, muammolar aniqlanadi;<br>3. Aniqlangan kamchilik va muammolarni bartaraf etish maqsadida yangi avlod o'quv adabiyotlarini bosqichma-bosqich yaratish hamda ARMda ularni mavjudligini ta'minlash bo'yicha reja ishlab chiqilib, reja asosida amalga oshiriladigan ishlarni monitoringi olib boriladi;<br>4. ARM fondini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar monitoringi natijalari to'g'risida universitet rektori va Kengashda ma'lumot berilib boriladi. | Joriy o'quv yili fevral oyida | TSNQB xodimlari va jamoatchi ekspertlar guruxi, ARM Kutubxona. |
| 9. | Professor-o'qituvchilarning ilmiy saloxiyati, ilmiy va o'quv metodik faoliyat maxsulotlarini taxliliy o'rganish | 1. Professor pedagoglarni ilmiy saloxiyati bo'yicha ma'lumotlar kafedralar kesimida universitetning ilmiy bo'limi va kafedralardan olinadi hamda taxlili o'tkaziladi;<br>2. Professor pedagoglarni ilmiy saloxiyati xolatini o'rganish uchun shakllantirilgan jamoatchi ekspertlarni jalb etgan xolda, Davlat inspeksiyasi tomonidan belgilangan jadval asosida kafedralarda yo'lga kuyilgan ilmiy tadqiqot faoliyati, kafedra xodimlarining ilmiy izlanishlardagi ishtiroki, chop etilgan ishlari, ularni xaqqoniyligi va kuchirmachilik (plagiat) yuzasidan taxlili o'tkaziladi;<br>3. O'tkazilgan taxlil natijalariga ko'ra universitet va kafedralarning ilmiy saloxiyatini oshirishga qaratilgan mexanizm shakllantirish maqsadida taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi; | Joriy o'quv yili,<br>Xar chorakda | TSNQB xodimlari, ilmiy bo'lim va jamoatchi ekspertlar guruxi. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Taklif va tavsiyalar universitet rektori va Kengashga xavola etiladi;<br>4. Universitet Kengashi qarori asosida kabul kilingan taklif va tavsiyalarni bajarilishi doimiy ravishda nazorati olib boriladi. | | |
| 10. | 2022 yil yakunida kutilayotgan Respublika OTMlari reytingi orasida universitet reytingi koʻrsatkichini 2021 yilga nisbatan 10 % ga koʻtarishga erishish | 1. 2021 yil natijalari boʻyicha reyting koʻrsatkichlarining taxlili oʻtkaziladi;<br>2. Oʻtkazilgan taxlil asosida reyting koʻrsatkichlarida muammolari boʻlgan past koʻrsatkichlar boʻlgani sabablari oʻrganiladi;<br>3. 2022 yil yakuni boʻyicha oshirish kerak boʻlgan reyting koʻrsatkichlari uchun universitet, fakultetlar, kafedralar va xar bir professor-pedagoglar uchun reja ishlab chiqiladi;<br>4. Shtab a'zolari ishtirokida universitet reytingini oshirish boʻyicha xar bir professor-pedagoglar uchun ishlab chiqilgan reja asosida amalga oshirilayotgan ishlar monitoringi oʻtkaziladi hamda monitoring natijalari boʻyicha universitet raxbariyatiga ma'lumot berilib boriladi. | Joriy oʻquv yili,<br>Xar chorakda | TSNQB xodimlari va jamoatchi ekspertlar guruxi, ilmiy boʻlim. |
| 11. | Professor-oʻqituvchilar tomonidan dars mashgʻulotlarining oʻtkazilish xolatini taxliliy oʻrganish | 1. Professor pedagoglar tomonidan dars mashgʻulotlari jarayoni xolatini oʻrganish uchun shakllantirilgan jamoatchi ekspertlarni jalb etgan xolda, kafedralarda professor-oʻqituvchilar tomonidan dars mashgʻulotlarini oʻtilishi, mashgʻulot xronokartasiga rioya kilinishi, sifat va mazmuniga, hamda qoʻllanilgan pedagogik texnologiyalarga, axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalana olish darajasi hamda innovatsion gʻoyalarni mashgʻulotga tadbiq etishiga qarab baho beriladi;<br>2. Oʻrganish natijalari boʻyicha takliflar tayyorlanadi, universitet rektori va Kengashiga taqdim etiladi;<br>3. Universitet Kengashi qarori asosida yangi ishga kelgan pedagoglar uchun “Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish” oʻquv-mashgʻulotlarini tashkil qilish rejasi tuziladi va olib boriladi. | Joriy oʻquv yili davomida | TSNQB xodimlari va jamoatchi ekspertlar guruxi, oʻquv uslubiy boʻlim. |
| 12. | Universitet kafedralarida mustaqil ta'limning | 1. Kafedralarda dars mashgʻulotlarini oʻtilishida | Joriy oʻquv yili | TSNQB xodimlari va |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | tashkil etilganligini o‘rganish | mustaqil ta’lim jarayoni xolatini o‘rganish uchun, shakllantirilgan jamoatchi ekspertlarni jalb etgan xolda, kafedralarda talabalar mustaqil ish yuritish uchun aloxida xona bilan moddiy texnik bazasining mavjudligi, axborot kommunikatsion va texnik resurslarini (elektron, bosma), ko‘rgazmali materiallar va multimedia vositalarni mavjudligi o‘rganiladi;<br>2. Talabalar mustaqil ishga tayyorlanishlari uchun ARMdagi sharoitlar, uning ish tartibi, kompyuter texnikasi va ularning internetga ulanganligi, ishlash tezligi, WI-FI zonalarining mavjudligi o‘rganiladi;<br>3. TTJlarda elektron va bosma kutubxonalarning mavjudligi, ularda yaratilgan sharoitlar o‘rganiladi;<br>4. Barcha olingan ma’lumotlar taxlili o‘tkazilib, aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi hamda universitet rektoriga taqdim etiladi. | davomida | jamoatchi ekspertlar guruxi, kafedra mudirlari va o‘quv ishlari bo‘yicha ma’sullar, ARM, AKT markazlari, gurux murabbiylari. |
| 13. | Universitetda taxsil olayotgan iqtidorli talabalar bilan olib borilayotgan ishlar xolatini o‘rganish.<br>Iktidorli talabalar xaqidagi ma’lumotlar bazasini shakllantirish. | 1. Universitetda taxsil olayotgan iktidorli talabalar bilan olib borilayotgan bo‘lim faoliyatining xolati bo‘yicha ma’lumotlar ilmiy bo‘lim, fakultetlar va kafedralardan olinadi va faoliyatning ijobiy samaradorligi baxolangan xolda o‘rganiladi;<br>2. Iktidorli talabalarni ilmiy faoliyatga, xar xil tanlovlar, yosh olimlar ilmiy-amaliy loyixalari va ilmiy anjumanlarda ishtirok etishga qiziqtirish va ularni bu borada kengrok jalb qilish ishlariga e’tiborni qaratgan xolda, universitet bo‘yicha iqtidorli talabalar ro‘yxati shakllantirilganligi xolati o‘rganiladi;<br>3. O‘rganish natijalariga ko‘ra universitetning iqtidorli talabalar xaqidagi ma’lumotlar bazasi shakllantiriladi;<br>4. Iqtidorli talabalar bilan olib borilayotgan ishlar, tanlovlar natijalari xolati jamoatchi ekspert guruxi xodimlari jalb etilgan xolda, taxlili o‘rganiladi.<br>5. O‘rganish natijalari bo‘yicha takliflar tayyorlanadi va ular universitet rektoriga taqdim etiladi. | Joriy o‘quv yili davomida | ekspertlar guruxi, kafedra mudirlari va o‘quv ishlari bo‘yicha ma’sullar, ARM, AKT markazlari. gurux murabbiylari. |
| 14. | O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidaga 29.06.2020 y. PF- | 1. Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish va mustaxkam fuqarolik nuqtai nazarini shakllantiradigan chora-tadbirlar amalga oshiriladi; | Joriy o‘quv yilida semestr yakunlari | TSNQB xodimlari, universitet |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | 6013- sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni ijrosini ta’minlash | 2. Korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida universitetda professor-o‘qituvchilari hamda talabalar ishtirokida seminarlar va tadbirlar tashkil etiladi.<br>3. Xar bir kafedralarda o‘qitilayotgan fanlar kesimida o‘tkaziladigan nazorat turlarida shaffoflikni ta’minlashda talabalar ota-onalari ishtirokini ta’minlanadi;<br>4. Talabalar o‘rtasida o‘quv yili semestr yakunida korrupsiyani oldini olish maqsadida anketa surovnomalar o‘tkaziladi. | bo‘yicha | ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi, ichki manitoring bo‘limi, talabalar ota-onalari |
| 15. | “Talabalar bilimini baxolashning reyting tizimi to‘g‘risida”gi Nizom talablaridan kelib chiqib, o‘quv yilini baxorgi va kuzgi semestrida, klinik kafedralarda sikl davomida talabalar bilimining xolisona baxolanishini ta’minlashga erishish. | 1. Talabalar bilimiga kuyilgan ballar tanlanma asosda o‘rganiladi (qiyosiy taxlil kilinadi);<br>2. Bunda professor-o‘qituvchilarning dars berish sifatini o‘zaro o‘rganish natijalaridan kelib chiqqan xolda tanlanma asosda tegishli fanlardan talabalar bilimiga qo‘yilgan ballarning ob’ektivligini qiyoslash asosida taxliliy o‘rganib chiqiladi;<br>3. O‘rganish natijalari bo‘yicha takliflar tayyorlanadi va raxbariyatga kiritiladi. | Joriy o‘quv yili davomida | TSNQB xodimlari, Fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, Magistratura bo‘limi, Ekspertlar guruxi |
| 16. | Mutaxassislik fanlarining chet tilida ukitilishi xolatini va uning universitet bo‘yicha salmog‘i va sifatini o‘rganish. | 1. Mutaxassislik bo‘yicha chet tillarida mashg‘ulotlar o‘tash guruxlari tashkil kilingan kafedralar va fanlar ro‘yxati fakultet dekanati va o‘quv ishlari bo‘limidan olinadi;<br>2. Universitetda mutaxassislik fanlarini chet tilida o‘qitilishi xolati, uning universitet bo‘yicha salmog‘i va sifatini aniqlash maqsadida chet tillari kafedrasi xodimlaridan jamoatchi ekspert guruxi tashkil qilinadi;<br>3. Jamoatchi ekspert ishchi guruxi bilan hamkorlikda mutaxassislik bo‘yicha chet tillarida mashg‘ulot o‘tayotgan kafedratardagi ta’lim jarayoni, o‘quv uslubiy ta’minoti va o‘zlashtirilish darajasi oldindan tayyorlangan so‘rovnoma asosida o‘rganiladi.<br>chet tillarda mashg‘ulotlar olib brishda seminar treninglar tashkil etish yo‘lga qo‘yiladi;<br>4. Aniqlangan muammolar va kamchiliklarni bartaraf qilish bo‘yicha taklif va tavsiyalar universitet raxbariyatiga taqdim etiladi, taklif va tavsiyalarni ijrosini nazorati doimiy ravishda olib boriladi. | Joriy o‘quv yili davomida | TSNQB xodimlari, Chet tillari kafedrasi mudiri O‘quv bo‘limi, mutaxassislik bo‘yicha chet tilida mashg‘ulot o‘tish guruxlari tashkil kilingan kafedralar mudirlari va o‘quv ishlari bo‘yicha ma’sul xodimlari. |
| 17. | Kuzgi va baxorgi semestr yakuni bo‘yicha talabalar bilimini baxolash jarayonini taxlil qilish asosida reyting ballarining xolisligini, | 1. Har bir kafedra kesimida kuzgi va baxorgi semestr yakuni bo‘yicha talabalar bilimini baxolash jarayoni taxlil qilingan ma’lumotlari universitet o‘quv-uslubiy bo‘lim, | Joriy o‘quv yili davomida | TSNQB xodimlari, tegishli fakultet dekanlari, dekan |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | shaffofligini va sifat darajasini baxolash | fakultetlar va kafedralardan olinadi;<br>2. Talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari semestr yakuni bo'yicha solishtirma jadvallar, sifat va miqdoriy ko'rsatkichlar, reyting ballarning xolisligi, shaffofligi va sifat darajasining taxlili o'tkaziladi;<br>3. JB, OB, YaB va BMI lar orasidagi tafovutlar taxlil qilinadi, takliflar tayyorlanadi va universitet rektoriga taqdim etiladi;<br>4. Taklif va tavsiyalarni bajarilishi nazorati doimiy ravishda olib boriladi. | | muovinlari, kafedra mudirlari. |
| 18. | Talabalar davomati, fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari (joriy, oralik, yakuniy nazoratlari)ni tanlanma asosda korelyatsion tahlil qilish. | 1. Talabalar davomatidan kelib chiqib, fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari (joriy, oralik, yakuniy nazoratlari)ni tanlanma asosda *korelyatsion* taxlili o'tkazish maqsadida kafedralar va fakultetlar dekanlaridan ma'lumotlar olinadi;<br>2. O'tkazilgan taxlil natijalari bo'yicha takliflar tayyorlanadi va universitet raxbariyatiga kiritiladi;<br>3. Tahlil natijalariga ko'ra davomati sust bo'lgan talabalarning o'zlashtirishiga chuqurroq e'tibor qaratilgan xolda chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi;<br>4. Ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasini amalga oshirilishi nazorati doimiy ravishda olib boriladi. | Joriy o'quv yili davomida | TSNQB xodimlari, |
| 19. | 2022-2023 o'quv yili bakalavriat (magistratura) bitiruvchilari uchun o'tkaziladigan YaDA (DAK) faoliyatiga tayyorgarlikning borishini, ushbu jarayonnyng amaldagi normativ-xukukiy xujjatlarda kuyilgan talablar asosida sifatli tashkil etilishi va o'tkazilishiga karatilgan faoliyatni nazoratga olish | 1. Bakalavriat (magistratura) bitiruvchilari uchun o'tkaziladigan YaDA (DAK) faoliyatiga tayyorgarlikning borishi, ushbu jarayonning ko'yilgan talablar asosida sifatli tashkil etilishi va o'tkazilishi xolati fakultetlar kesimida o'rganiladi;<br>2. Ushbu jarayonnyng xolisona o'tkazilishi nazoratga olinadi;<br>3. YaDA (DAK) natijalari taxlil kilinadi, taxlil natijasida aniklangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi va universitet rektoriga taqdim etiladi;<br>4. Belgilangan chora-tadbirlarni ijrosini nazorati olib boriladi; | Joriy o'quv yili yakunida | TSNQB xodimlari, Ekspertlar guruxi. Fakultet dekanlari, Magistratura bo'limi, Kafedra mudirlari |
| 20. | Universitet 1-kurs talabalarining yozgi o'quv tanishuvi, ishlab chiqarish va 2,3 -kurs talabalarining malakaviy amaliyoti samarali tashkil etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni o'rganish. | 1. Talabalar amaliyotiga tayyorgarlik, ularni samarali tashkillashtirish va olib borilishi sifati hamda amaliyot imtixonlarini o'tkazish xolati o'rganiladi. Bunda talabalar amaliyotini ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklardan kelib chiqib rejalashtirilganiga e'tibor karatiladi; | Joriy o'quv yili davomida | TSNQB xodimlari, Ekspertlar guruxi, Malakaviy amaliyotga mas'ullar |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | 2. O‘rganish natijalari bo‘yicha ma’lumot rektorga taqdim etiladi; | | |
| 21. | Universitetda chet tilini va AKT ni o‘rganish bo‘yicha qo‘shimcha kurslarning tashkil etilganligi, ularning samarasini o‘rganish | 1. Professor-o‘qituvchilar va talabalarning chet tillari va AKTni o‘rganishlari uchun ko‘shmcha kurslarning tashkil etilganligini o‘rganish maksadida universitet mas’ul xodimidan ma’lumotlar olinadi;<br>2. Olingan ma’lumotlar bo‘yicha pedagoglar va talabalarni chet tillarini o‘zlashtirishini yanada oshirishga e’tibor karatilgan xolda taxlil o‘tkaziladi;<br>3. O‘rganish natijalari bo‘yicha takliflar tayyorlanadi, universitet rektoriga taqdim etiladi;<br>4. O‘rganish natijalari asosida kabul kilingan taklif va tavsiyalarni bajarilishi nazorati doimiy ravishda olib boriladi. | Joriy o‘quv yili davomida | TSNQB xodimlari, universitet o‘quv bo‘limi xodimlari, Chet tillari kafedrasi mudiri va ARM xodimlari. |
| 22. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenta Sh.Mirziyoevning yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 ta muxim tashabbusida ko‘rsatib o‘tilgan yo‘nalishlarning ijrosini o‘rganish | 1. Bo‘lim va kafedralarning 5 ta tashabbus yo‘nalishlarining ijrosi bo‘yicha ish rejasi va uning bajarilish xolati o‘rganib chiqiladi;<br>2. Talabalar o‘rtasida universitetda 5 ta tashabbus yo‘nachishlarining ijrosi bo‘yicha surovnomalar o‘tkaziladi;<br>3 Gurux murabbiylarining qabul qilingan dastur bo‘yicha amalga oshirgan ishlari o‘rganiladi;<br>4. O‘rganish natijalari asosida qabul qilingan taklif va tavsiyalarni bajarilishi nazorati doimiy ravishda olib boriladi. | 2022-2023 yil sentyabr-iyul | TSNQB xodimlari, Ma’naviyat bo‘limi boshlig‘i, fakultet dekanlari, magistratura bo‘limi, kafedra mudirlari, universitet murabbiylar kengashi |
| 23. | O‘quv yili davomida universitet Kengashi majlislarida bo‘lim tomonidan ta’lim sifatini yaxshilash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar natijalari, mavjud kamchiliklarni bartaraf etilganlik xolati, ta’lim sifatini yanada ko‘tarishga karatilgan takliflar bo‘yicha ma’lumot va xisobotlar berib borish. | 1. Universitet Kengashi majlisida amalga oshirilgan ishlarning natijalari bo‘yicha taxliliy ma’lumot berib boriladi;<br>2. Xar bir ma’ruzada berilgan vazifalar bo‘yicha Kengashning tegishli qarorlarini ijrosi nazorat qilib boriladi. | Joriy o‘quv yili davrida | TSNQB boshlig‘i |

**Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i** **B.X.Eshchanov**